

BOLALARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK JAMIYATNING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA .

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11169911>

Ro'zimatov Elbek Erkinjanovich

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti "Ijtimoiy ish" kafedrasi o'qituvchisi

Xaydarova Shaxnoza No'mon qizi

"Ijtimoiy ish" yo'nalishi talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqola oilalarda bolalarga nisbatan zo'ravonlik muammosi o'rganilgan bo'lib, zo'ravonlik muammosining turli adabiyotlardagi talqini tahlil qilingan. Mamlakatimizda bunday bolalarni himoya qilish va ularning rivojlanishi va hayoti uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan ijtimoiy-huquqiy mexanizmlar o'rganilgan. Shuningdek, bolalarning shavqatsiz munosabatdan himoyalanishiga qaratilgan ijtimoiy ishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar

konvensiya, ekspluatatsiya, jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, hissiy (yoki psixologik) zo'ravonlik, e'tiborsizlik, ensiklopediya, jismoniy jazo, psixologik tajovuz, "ochilish eshiklari", "geshtal" terapiyasi, himoya orderi, ishonch telefoni.

ПРОБЛЕМА НАСИЛИЯ НАД ДЕТЬМИ В СЕМЬЯХ.

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема насилия над детьми в семье, а также анализируется трактовка проблемы насилия в различной литературе. В нашей стране изучены социальные и правовые механизмы, направленные на защиту таких детей и создание благоприятных условий для их развития и жизни. Также анализируются современные тенденции социальной работы, направленные на защиту детей от жестокого обращения.

Ключевые слова

конвенция, эксплуатация, физическое насилие, сексуальное насилие, эмоциональное (или психологическое) насилие, пренебрежение, энциклопедия, физическое наказание, психологическая агрессия, «открытие дверей», «гештальт» терапия, охранный ордер, горячая линия.

THE PROBLEM OF VIOLENCE AGAINST CHILDREN IN FAMILIES.

Abstract

This article examines the problem of violence against children in families, and analyzes the interpretation of the problem of violence in various literature. Social and legal mechanisms aimed at protecting such children and creating favorable conditions for their development and life have been studied in our country. Also, modern trends of social work aimed at protecting children from abusive treatment are analyzed.

Keywords

convention, exploitation, physical violence, sexual violence, emotional (or psychological) violence, neglect, encyclopedia, physical punishment, psychological aggression, "opening doors", "gestal" therapy, protection order, hotline.

Agar bola himoyalanganlik tuyg'usi bilan yashasa, u o'ziga ishonishni o'rganadi.

Agar bolani qabul qilishsa, u sevishni o'rganadi.

Agar bolani tan olishsa, u o'zining oldiga maqsadlar qo'yishni o'rganadi.

Agar bolani ma'qullahsa, u o'zini sevishni o'rganadi.

Agar bola do'stona muhabbat ichida yashasa, u biladi, yashash uchun eng qulay joy bu- oila.

T. Djinot [1]

Bolalarmi ijobiy ruhda tarbiyalash, ularni to'g'ri rivojlanishlari uchun sharoit yaratishda kattalarga mas'uliyat yuklanadi. O'sib kelayotgan bolalarga "zo'ravonliksiz" hayotni barpo etishda, jamiyatdagi barcha insonlar javobgar hisoblanadi. Chunki bolalar oiladan tashqari bog'cha, maktab, oliy o'quv yurti, umumiy holda jamiyat bilan ijtimoiylashadi. Bolalar xususiyatlarini noto'g'ri tushunish, bolalarga nisbatan zo'ravonlikni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston bolalar huquqlarini, shu jumladan, favqulodda vaziyatlarda himoya qilishga sodiqligini namoyish etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya 1992 yil 9 dekabrida ratifikatsiya qilindi. Davlat o'z zimmasiga mazkur xalqaro hujjatda qayd etilgan bolalarning barcha huquqlarini, shu jumladan, jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonliklardan, qiyonoqqa solishlardan yoki shafqatsizlik, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kansituvchi boshqa shakllardagi muomaladan, himoya qilish majburiyatini oldi.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida (4-modda) bolaning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish, bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash, bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish[2], bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash belgilangan.

Shu bilan birgalikda, ushbu qonunda davlat bolaning barcha shakllardagi kamsitishlardan himoya qilinishini ta'minlash uchun zarur choralarni ko'rishi (7-modda), har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalanish huquqiga egaligi, davlat jismoniy, ruhiy va jinsiy zo'ravonlikdan, qynoqlarga solishdan yoki shafqatsiz, qo'pol yoxud inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa shakldagi muomaladan himoya qilinishini amalga oshirishi belgilangan [3].

Bugungi kunda oilalarda bolalar nisbatan zo'ravonlik holatlarining tez-tez uchrab turishi, bu qatlam vakillarining jamiyatning eng himoyasiz va himoyalanmagan a'zolari ekanini tasdiqlaydi. Zero bolalarning hayoti, sog'lig'i, qo'llab-quvvatlashi, e'tibori, himoyasi va hokazolarda oilada kattalarga to'liq bog'liqdir. Ammo, aslida, ko'plab bolalar oilalarda zo'ravonlik dahshatini boshdan kechiradilar va o'z oilalarida yoki ijtimoiy muhitda kattalar, tengdoshlari tomonidan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo'ravonlik qurbanini bo'lishadi.

Zo'ravonlik nafaqat bolalarning omon qolishi va sog'lig'iga, balki ularning hissiy farovonligi va keljak istiqbollariga ham tahdid soladi. Agar bola erta yoshda, tana va miya rivojlanishining muhim bosqichida zo'ravonlikni boshdan kechirgan yoki guvohi bo'lgan bo'lsa, salbiy oqibatlar qaytarilmas bo'lishi mumkin. Zo'ravonlik bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligiga ta'sir qiladi, ularning ta'lim olish va ijtimoiylashuv qobiliyatini pasaytiradi, psixologik jihatdan sog'gom voyaga yetishishlari va yaxshi ota-onalar bo'lib shakllanishlariga to'sqinlik qiladi.

Afsuski, oilada bolalarga nisbatan zo'ravonlik, ijtimoiy norma hisoblanib qolmoqda. Ko'pincha uning oqibatlari muhokama qilinmaydi. Farzandni tarbiyalash uchun zo'ravonlik zarur, jismoniy kuch jazo sifatida ishlatalishi mumkin, deb hisoblaydigan ota-onalar bor.

Ota-onalarning turmush sharoitining og'irligi, qashshoq va kambag'alligi, ularning spirtli ichimliklarni iste'mol qilishi va o'z farzandlarini tashlab ketishi hamda migratsiyasi bolalarning qarovsizligi, tahqirlanishi yoki ekspluatatsiyasi xavfini oshiradi.

Bolalar zo'ravonlik holatlari haqida gapirmaydilar va shuning uchun kamdan-kam hollarda kerakli yordamni olishadi. [4] Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini to'rt guruhga ajratdi: jismoniy zo'ravonlik; jinsiy zo'ravonlik; hissiy (yoki psixologik) zo'ravonlik; va e'tiborsizlik. Bolaga nisbatan qasddan jismoniy kuch ishlatish bu bolaning sog'lig'i, hayoti, rivojlanishi yoki qadr-qimmatiga zarar yetkazishga olib keladigan yoki buning yuqori ehtimoli bo'lgan jismoniy kuch ishlatish. Bunga urish, turtish, tepish, silkitish, tishlash, bo'g'ish, kuydirish, zaharlash, bo'g'ish kiradi. Uyda bolalarga nisbatan jismoniy zo'ravonlikning ko'plab holatlari jazolash obyekti bilan amalga oshiriladi [5]. Psixolog Alice Miller, bolalarga nisbatan zo'ravonlik haqidagi kitoblarida ta'kidlaganidek, haqorat qilish, kaltaklash, yuzga urish va hokazolarning barchasi zo'ravonlikning ko'rinishi deb hisoblaydi, chunki oqibatlari darhol ko'rinasada, ular bolaning butunligi va qadr-qimmatiga putur yetkazadi [6]. Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik (CSA) – bu kattalar yoki o'smirlar o'z jinsiy xohishlarini rag'batlantirish uchun bolalardan foydalanadigan bolalarga nisbatan zo'ravonlikning bir shakli[6]. Jinsiy zo'ravonlik deganda bolaning zo'ravonning jismoniy qoniqishi yoki moliyaviy foydasiga qaratilgan jinsiy harakatda ishtirok etishi tushuniladi. Bolalarga nisbatan jinsiy zo'ravonlik shakllariga boladan jinsiy faoliyat bilan shug'ullanishni so'rash yoki unga bosim o'tkazish (natijasidan qat'iy nazar), jinsiy a'zolar bilan bolaga odobsiz ta'sir o'tkazish, bolaga pornografiya ko'rsatish, bola bilan haqiqiy jinsiy aloqa, bolaning jinsiy a'zolari bilan jismoniy aloqa qilish, bolaning jinsiy a'zolarini jismoniy aloqa qilmasdan ko'rish yoki bolalar pornografiyasini yaratish uchun boladan foydalanish kabilar kiradi. Bolalarning jinsiy xizmatlarini taklif qilishga oddiy huquqbazarlik emas, balki bolalarga nisbatan zo'ravonlik sifatida qaralishi va muomala qilinishi mumkin [8].

Bolalarga nisbatan psixologik zo'ravonlikning bir nechta ta'riflari mavjud:

2013-yilda Amerika Psixiatriya Assotsiatsiyasi (APA) DSM-5 ga bolalarga nisbatan psixologik zo'ravonlik holatlari haqidagi ta'rifni qo'shib, uni „bolaning ota-onasi yoki unga g'amxo'rlik qiluvchi shaxs tomonidan bolaga jiddiy psixologik zarar yetkazishga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan tasodifiy bo'lman og'zaki yoki ramziy xatti-harakatlar“ shaklida ifoda etdi [9]. 1995-yilda APSAC mazkur holatni quyidagicha ta'rifladi: rad qilish, qo'rqtish, izolyatsiya qilish, ekspluatatsiya qilish, hissiy sezgirlikni inkor etish yoki e'tiborsizlik" yoki „bolalarga ular befoyda, nuqsonli, sevilmagan, istalmagan, xavf ostida qolgan yoki faqat boshqa birovning ehtiyojlarini qondirish uchun qadrli ekanligini uqtiruvchi vasiyning takroriy xatti-harakati yoki ekstremal hodisa(lar)i“[10]. E'tiborsizlik:

bolaning qarovsizligi – ota-onaning yoki bola uchun mas’ul bo’lgan boshqa shaxsning bolaning sog’lig‘i, xavfsizligi yoki farovonligiga zarar yetkazishi mumkin bo’lgan darajada oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, tibbiy yordam bilan ta’minlamasligi, nazorat qilmasligi. E’tiborsizlik, shuningdek, bola bilan bir muhitda turgan odamlarning e’tiborsizligi va bolaning omon qolishi uchun tegishli va yetarli chora-tadbirlarni qo’llamasligidir [11].

Bugungi kunga qadar ommaviy adabiyotlarda tibbiyat, sotsiologiya va huquqshunoslikning ushbu bo’limlari bo'yicha ko'rib chiqilayotgan muammoning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi turli xil materiallar nashr etilgan. Zamonaviy adabiyotda zo'ravonlik destruktiv xatti-harakatlarning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi (S.A.Belicheva, E.N.Volkova, E.M.Vrono, I.N.Grigovich, V.E.Drujinin, R.N.Klayberg, A.A.Rean va boshqalar) [12].

Zo'ravonlik harakatlarining kuchayuvchi manbai bo'lib xizmat qiladigan tajovuzkor xatti-harakatlar nazariyalari L. Berkovitz, G. Simmel, B. Skinner, 3. Freyd asarlarida mavjud. Zo'ravonlik tarqalish manbalarining butun majmuasini talqin qilish uchun P.Burdye, M.Veber, E.Giddens, I.Ilyin, T.Parsons, J.Russolarning ijtimoiy tengsizlik haqidagi tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. A. Koestler, E. Frommlar inson xulq-atvorining destruktivligi muammosi bilan shug'ullangan [13].

Ijtimoiy ish entsiklopediyasiga ko'ra, uydagi zo'ravonlik - bu nazorat qilish uchun tez-tez takrorlanadigan jismoniy, og'zaki, ma'naviy va iqtisodiy zo'ravonlik davri tushuniladi. Degtyarev A.V. amerikalik shifokor S. Kemp va uning guruhi 1962 yilda bolalarga nisbatan zo'ravonlik holatlarini aniqlagan paytda, nisbatan yaqin yillarda bolalarga nisbatan zo'ravonlik chuqur o'rganish ob'ektiga aylanganini aytadi va "kaltaklangan bola sindromi" ni tavsiflaydi [14].

2023-yil 10-oktyabr kuni Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Adliya vazirligi va UNICEF hamkorligida “Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida”gi qonun loyihasi taqdim etildi.

Hujjatning qabul qilinishi bolalarning huquqiy himoyasini kuchaytirishi va oilaga maslahat berish, psixologik-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, hayotiy ko'nikmalarni o'rgatish hamda xavfsiz uy-joy kabi qo'llab-quvvatlash tizimlarini takomillashtirishi kutilmoqda.

UNICEF tomonidan yaqinda o'tkazilgan ko'p ko'rsatkichli so'rov shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda 1 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarning uchdan ikki qismi (62%) zo'ravonlik bilan tarbiyalash usullariga (jismoniy jazo, psixologik tajovuz) uchragan, 15–19 yoshdagи qizlarning 33 foizi er o'z xotinini urishga haqli deb hisoblaydi. O'zbekistonda 2023 yilning 9 oyida voyaga yetmaganlarga nisbatan 1240 ta zo'ravonlik holati qayd etilgan bo'lsa, shundan 417 tasi jinsiy

zo'ravonlikdir, dedi prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya agentligi direktorining birinchi o'rinnbosari Shahnoza Mirziyoyeva. "Oilaviy zo'ravonlik holatlari ko'payib borayotgani dahshatli. Tasavvur qiling, joriy yilning 9 oyida qarindoshlar, jumladan, yaqinlar tomonidan bolalarga nisbatan 166 ta zo'ravonlik holatlari qayd etilgan. Afsuski, hatto rasmiy statistika ham ko'lamni obektiv baholashga imkon bermaydi. Haqiqiy holat bundan ham battar", -deya so'z yuritdi Mirziyoyeva [15].

Zo'ravonlik va shafqatsizlikni boshidan kechirgan bolalar va o'smirlarga ijtimoiy ish mutaxassisini tomonidan ko'rsatiladigan yordam, zo'ravonlik oqibatlarini iloji boricha to'liq bartaraf etishga va zo'ravonlik xatarlarini to'xtatish choralarini ko'rishga qaratilishi kerak. Bu ish profilaktik, diagnostik va psixoterapevtik tadbirlarin o'z ichiga oladi. Eng e'tibor loyiq jihat shundan iboratki, ijtimoiy ish xodimi, bolaning yoshi va zo'ravonlik darajasiga qarab yordamni tashkil etsa samaraliy bo'ladi. Jabirlanuvchi bolaga samarali yordam ko'rsatish uchun uning hayotiy sharoitlari haqida to'liq va har tomonlama ma'lumotlar zarur. "Ochilish eshiklari" terapiyasi, orqali bolaga so'zlar orqali rag'batlantirish, ochiqroq bo'lismga imkon beradigan maxsus savollar yoki izohlatdan foydalangan holda qo'llash maqsadga muofiq. "Geshtal" terapiyasi ham bu borada zo'ravonlikka uchragan bolaga yordam berishda samara beradi. Bu terapiyada ham bolaning yoshi inobatga olinadi." Geshtal" terapiya markazida mijoz (bola, ayol, erkak) turadi. Bu terapiyada individual ishlanadi va bevosita ish olib boradi. "Men va sen", "Bu yerta va hozir", tushunchalarini qo'llagan holda mijoz bilan, ishlanadi va ijobiy natijaga erishiladi [16]

Zo'ravonlikdan jabrlanuvchi quyidagi huquqlarga ega:

- zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoyaga ega bo'lism;
- o'ziga nisbatan zo'ravonlik sodir etilgani, tahdid qilingani yuzasidan ariza berish yoki sudga murojaat etish;
- barcha turdag'i bepul taqdim etiladigan maslahatlardan foydalanish;
- himoya orderi berish to'g'risidagi talab bilan murojaat qilish;
- sodir etilgan zo'ravonlik natijasida o'ziga yetkazilgan moddiy zararning o'rni qoplanishi hamda ma'naviy ziyon kompensatsiya qilinishini talab qilishi mumkin.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'mini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror va sud tomonidan amalga oshiriladi. Zo'ravonlikdan himoya qilish faoliyatiga quyidagi davlat organlari va tashkilotlari bevosita mas'uldir: hukumat, Bolalar ombudsmani, Ijtimoiy himoya

milliy agentligi; prokuratura organlari, ichki ishlar organlari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi; mahalliy hokimiyat organlari va boshqalar.

Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilishda quyidagi chora-tadbirlar ko'rildi:

- himoya orderini berish;
- zo'ravonlikdan jabrlanuvchi va shunday xavf ostidagi bola uchun yordam;
- jabrlanuvchining oilalarini mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash;
- bolani ota-onadan (ularning o'rnini bosuvchi shaxslardan) yoki o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxslardan olish;
- zo'ravonlik xulqini o'zgartirish bo'yicha tuzatish dasturlaridan o'tish;
- jinsiy zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning huquqlarini cheklash.

Himoya orderi vakolatli organ tomonidan zo'ravonlikdan jabrlanuvchining qonuniy vakiliga yoki bolani o'z qaramog'iga olgan boshqa shaxsga hamda zo'ravonlikdan jabrlanuvchining o'ziga beriladi. Zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lган shaxsga himoya orderining nusxasi beriladi.

Agentlik holat yuzasidan ma'lumotlar kelib tushgan paytdan boshlab 24 soat ichida vaziyatni baholab, natijasiga ko'ra himoya orderini beradi yoki rad etadi. Himoya orderi 30 kun muddatgacha beriladi va bu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi. Agar xavf hali bartaraf etilmagan bo'lsa, uning amal qilish muddati JIB sud tomonidan ko'pi bilan 1 yilgacha muddatga uzaytirilishi mumkin.

Ijtimoiy himoya agentligi zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish, maslahat berish maqsadlarida butun O'zbekiston hududida tun-u kun ishlaydigan, bepul telefon liniyasi tarmog'i (**ishonch telefoni**) ishlab turishini ta'minlaydi. Telefon liniyasi tarmog'i maxfiylikka rioya etgan holda faoliyat ko'rsatadi [17].

Bolalarning oilada zo'ravonlikka uchrashiga asosiy sabab nima? degan savolga mutaxassislar quydagicha javob bermoqda. 43,8 foizi ota-onaning tarbiya borasidagi salohiyati pastligi, 22,7 foizi oiladagi nosog'lom psixologik muhit, 20,1 foizi bolaning ota-ona g'azabini qo'zg'atuvchi xatti-harakatlarini qilishi deya javob bermoqdalar. Demak xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyatdagi barcha insonlar, xususan ota-onalar ham bolalarga nisbatan zo'ravonlik oqibati, agar bartaraft etilmasa nimalarga olib kelishini bilishlari kerak. Agar bola bizga zo'ravonlik

haqida gapisalar, bu vaziyatga jiddiy munosabatda bo'lishimiz, tinch bo'lishga harakat qilishimiz, bolani ham tinchlantirishimiz, ularga so'zlar orqali ishonchni qaytarishimiz, qo'llab-quvvatlashimiz kerak."Menga aytganing yaxshi, sen to'g'ri ish qilding", "Men senga ishonaman", "Bu vaziyatda sen yolg'iz emassan", degan so'zlar orqali ota-onam ham bolalarga yordam berishlari zarur. Ayrim hollarda bu vaziyatni aksi bo'ladi, bolalar ayiblanadi, bu bolalarda yuqorida aytiganidek o'ziga bo'lgan ishonchni pasayishi, aybdorlik hissini, ruhan ezilishlariga olib keladi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik, ularni hayot tarziga ta'sir qilmay qolmaydi [18].

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, maqolada muhokama qilingan ma'lumotlarga asoslanib, muammo ijtimoiy ekanligini ta'kidlash mumkin - nafaqat oilalarda bolalarga nisbatan zo'ravonlik faktlarining ko'pligi, hayot davri va deviant xulq-atvorni shakllantirish va amalga oshirish tendentsiyasi, balki olimlarning bolalik o'rtasidagi munosabatlarga oid bayonotlari bilan ham bog'liq. Boshqacha aytganda, zo'ravonlik qurboni bo'lgan bola odamlar bilan muloqotda ijtimoiy ijobiy munosabatlarga ega bo'lmaydi, kelajakda hayotga to'g'ri moslasha olmaydi. Bu muammo zudlik bilan aralashuv va yechimni taqozo etadi, chunki yuqorida aytib o'tganimizdek, jamiyatni beqarorlashtirishga tahdid soluvchi barcha muammolar ro'yxatining faqat bir qismi bo'lishiga qaramay, u butun jamiyat barqarorligi va farovonligiga xavf tug'diradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. "Bolalar va yoshlar ijtimoiy ta'minoti va himoyasi" o`quv qo'llanma. Ganiyeva M.X., Latipova N.M., Alekseyeva V.S., Ismailova B.X., Abduraxmanova M.M.

"Bolalarni ijtimoiy ish obyekti sifatida o`rganish" 18-b

2. lex.uz/acts/-1297315 <https://lex.uz/acts/-1297315>

3. <https://ombudsman.uz/oz/news/2022/04/11/bola-huquqlari-boyicha-vakil-bolalarga-nisbatan-zoravonlikni-toxtating-har-bir-bola-zoravonlikdan-himoyalanish-huquqiga-ega>

4. <https://ombudsman.uz/oz/news/2022/04/11/bola-huquqlari-boyicha-vakil-bolalarga-nisbatan-zoravonlikni-toxtating-har-bir-bola-zoravonlikdan-himoyalanish-huquqiga-ega>

5. World Health Organization and International Society for Prevention of Child Abuse and Neglect „1. The nature and consequences of child maltreatment“.

Preventing child maltreatment: a guide to taking action and generating evidence, Geneva, Switzerland, 2006. ISBN 978-9241594363.

6. „Alice Miller – Child Abuse and Mistreatment“. 2016-yil 9-yanvarda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2015-yil 5-mart.

7. „Child Sexual Abuse“. Medline Plus. U.S. National Library of Medicine (2008-yil 2-aprel). 2013-yil 5-dekabrda asl nusxadan arxivlangan.

8. Donald Black. DSM-5® Guidebook: The Essential Companion to the Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders, Fifth Edition, 1 February 2014 – 423 bet. ISBN 978-1-58562-465-2.

9. John E. B. Myers. The APSAC Handbook on Child Maltreatment. SAGE Publications Inc, 2011 – 126–130 bet. ISBN 978-1-4129-6681-8.

10. "Physical and emotional abuse of primary school children by teachers". Child Abuse Negl 36 (1): 64–70. 2012. doi:10.1016/j.chab.2011.05.007. PMID 22197151.

11. Приводится по: Ботова М.Г. Соотношение понятий «Насилие» и «Агрессия»: теоретико-эмпирическое исследование // Вестник КГУ им. Н.А.

Некрасова. 2012. №1. С. 101.

12. Приводится по: Ботова М.Г. Соотношение понятий «Насилие» и «Агрессия»: теоретико-эмпирическое исследование // Вестник КГУ им. Н.А.

Некрасова. 2012. №1. С. 101.

13. Приводится по: Ботова М.Г. Соотношение понятий «Насилие» и «Агрессия»: теоретико-эмпирическое исследование // Вестник КГУ им. Н.А.

Некрасова. 2012. №1. С. 101.

14. Дегтярев А.В. Семейное насилие. Факторы риска, диагностика, психотерапия // Психология и право. 2012. № 4. С.78.

15. "Bolalarga nisbatan zo'ravonliklarga ko'z yumishni bas qilishimiz kerak" - Shahnoza Mirziyoyeva

<https://kun.uz/news/2023/10/10/bolalarga-nisbatan-zoravonliklarga-koz-yumishni-bas-qilishimiz-kerak-shahnoza-mirziyoyeva?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F10%2Fbolalarga-nisbatan-zoravonliklarga-koz-yumishni-bas-qilishimiz-kerak-shahnoza-mirziyoyeva>

16. <https://sg.docworkspace.com/d/sILGV4ajkAdKzzLEG?sa=07&st=0t>

17. Bolaga zo'ravonlikning 6 turi, himoya orderi va boshqalar: yangi qonun loyihasida nimalar ko'zda tutilgan?

<https://kun.uz/news/2023/10/14/bolaga-zoravonlikning-6-turi-himoya-orderi-va-boshqalar-yangi-qonun-loyihasida-nimalar-kozda-tutilgan?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F10%2F14%2Fbolaga-zoravonlikning-6-turi-himoya-orderi-va-boshqalar-yangi-qonun-loyihasida-nimalar-kozda-tutilgan>

18. <https://sg.docworkspace.com/d/sILGV4ajkAdKzzLEG?sa=07&st=0t>